

O'ZBEKISTONDA JINOYATLAR VA ULARGA QARSHI TURISH MEXANIZMLARI: QONUNLAR MOHIYATIGA BIR NAZAR

Yaxyoyeva Umida

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-bosqich talabasi.

yaxyoyevaumida@gmail.com

ORCID: 0009-0003-2603-6511

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14211173>

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada, biz jinoyat va jazo tizimi tushunchasi, O'zbekistonda qanday jinoyatlar ko'payotgani, nima uchun ko'payotgani, bunga oid statistiklarni tahlil qilgan holda, mavjud muammolarga ehtimoliy yechimlar berishga harakat qildik. Bunda keng qonunchilik hujjatlari va doktrinal manbalardan keng foydalandik.

Kalit so'zlar: crime, cry of distress, Shan Yan, St. Thomas Aquinas, Cessara Beccaria, jazo tizimi, xalqaro tashkilotlar, Fyodor Dostoyevskiy.

CRIMES IN UZBEKISTAN AND MECHANISMS TO COMBAT THEM: WHY ARE LAWS NEEDED?

Abstract. In this scientific article, we tried to provide possible solutions to the existing problems by analyzing the concept of the crime and punishment system, what crimes are increasing in Uzbekistan, why they are increasing, and related statistics. We used a wide range of legal documents and doctrinal sources.

Key words: crime, cry of distress, Shan Yan, St. Thomas Aquinas, Cessara Beccaria, penalty system, international organizations, Fyodor Dostoyevsky.

ПРЕСТУПЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ И МЕХАНИЗМЫ БОРЬБЫ С НИМИ: ЗАЧЕМ НУЖНЫ ЗАКОНЫ?

Аннотация. В данной научной статье мы попытались предоставить возможные решения существующих проблем, проанализировав понятие системы преступлений и наказаний, какие преступления растут в Узбекистане, почему они растут, и соответствующую статистику. Мы использовали широкий спектр юридических документов и доктринальных источников.

Ключевые слова: преступление, крик бедствия, Шань Янь, Св. Фома Аквинский, Чессара Беккариа, пенитенциарная система, международные организации, Федор Достоевский.

I. Kirish

Avvalambor jinoyat tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14-moddasiga muvofiq, ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Ushbu normadan shuni tushunish mumkinki, muayyan qilmish ya'ni harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilishi uchun u Jinoyat kodeksining bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazishi, ayblilik xususiyatiga (ayblilik bu o'z xatti-harakatlarini tushunadigan va ularni boshqara oladigan aqli raso shaxsning huquqqa zid qilmishidan kelib chiquvchi aybidir) ega bo'lishi, ijtimoiy xavfli ya'ni jamiyat a'zolariga moddiy yoki ma'naviy zarar keltirishi va unga qarshi chora sifatida davlat tomonidan o'rnatilgan jazolarga tortilishi

muqarrarligiga oid faktlar mavjud bo'lishi kerak. Jinoyat boshqa qonunbuzarliklardan o'zining ijtimoiy xavflilik xususiyati bilan ajralib turadi, yani jinoyat boshqa qonunbuzarliklarga nisbatan ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori hisoblanib, u tufayli kelib chiqadigan oqibatlar ham jamiyatga jiddiy moddiy va ma'naviy zararlar yetkazadi.

Insoniyat azal-azaldan ushbu ta'siri keng jamoatchilikni qamrab oluvchi illatga qarshi kurashib kelmoqda.

¹Tadqiqotlarga binoan ilk qotillik bundan 430 000 yillar oldin Shimoliy Ispaniyada qayd etilgan bo'lib, bunda homo antecessor odam turi tomonidan sodir etilgan. Ammo biz buni yer yuzida sodir etilgan ilk qotillik deb atay olmaymiz, chunki tarixdan bizga ma'lumki, azaldan insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun qon to'kishdan ham tab tortmagan. Ibtidoiy davrlarda bu hattoki odatiy hol bo'lib, bunday jinoyatlar uchun hatto jazolar ham joriy etilmaganligi ehtimoldan holi emas.

Jinoyatlar uchun ilk jazolar qachondan qo'llanila boshlanganligi balki noma'lumdir, ammo "crime" - jinoyat so'zi ilk marotaba 1250-yillar atrofida eski fransuzcha "crimne", o'z navbatida lotin tilidagi "crimen" so'zidan olingan bo'lib, "Men qaror qilaman" yoki "Men hukm qilaman" ma'nolarini anglatgan. Ammo usbu masala bo'yicha olimlar o'rtasida bahs mavjud xususan, Rabbi Ernest Kleinnig ta'kidlashicha, "crimen" lotin so'zi aslida qadimgi yunon so'zi "Krima" dan kelib chiqqan bo'lib, "qoralash" yoki "sud hukmi" ma'nolarini anglatgan, shuningdek, "crimen" so'zi "cry of distress" – qayg'u yig'isi iborasidan kelib chiqqan bo'lib bu O'rta Asrlar oxiriga ya'ni 15-asrlar oxiriga to'g'ri keladi.

II. Metodologiya

Jinoyat va jazo tarixi.

Jinoyat ijtimoiy hodisa hisoblanib, jamiyat rivojlangan sari, jinoyat turlari va amalga oshirish usullari ham o'zgarib boradi. Bunga yaqqol misol sifatida axborot resurslari rivojlanishi natijasida vujudga kelgan kiberjinoyatlarni keltirish mumkin. Ushbu jinoyat turlari endigina paydo bo'layotgan jinoyat turi hisoblanib, barcha davlatlar ham unga qarshi turish mexanizmini o'rnatgani yokida to'liq o'rnatgani yo'q. Endi jinoyat va jazo tarixiga nazar tashlasak, jinoyatlar avvaldan faqatgina qasos olish maqsadida sodir etilgan, ya'ni agar biron kishi boshqa shaxsni o'ldirsa buning evaziga ham jon bilan to'lashi talab etilgan va bunda "qonga qon, jonga jon" iborasi asosida amalga oshirilgan.

Odamlar qanday jinoyat sodir etsalar xuddi shunday jinoyatlar bilan jazolangan, ammo bunda jinoyat sodir etgan shaxsning subyektiv holati ya'ni qasd yoki ehtiyotsizlik, motiv va maqsadlarni inobatga olmagan holda belgilangan. O'z navbatida bunday jazo cholari tarbiyalashdan ko'ra ko'proq qasos olish maqsadida qo'llanilgan va ko'pchilik hollarda jazo choralari jinoyatlarning xavflilik darajasiga umuman mos kelmagan. Keyinchalik qonunlar takomillashtirilib, jazo choralari jinoyatlarga mutanosib ravishda belgilanishiga alohida e'tibor berildi. ²Eng dastlabki qonunlarga misol sifatida "Hammurapi qonunlari" keltirish mumkin, aynan manashu qonunlarda har bitta jinoyat turi uchun alohida jazo choralari qo'llanilgan.

¹ David McCulloch, (2023) *A History of Crime: Investigations, Trials and Punishments*
<https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9b39aef7-9f6a-4689-9f53-d7d1a4977c16>

² Volo museum blog, (2020) *History of Crime and Punishment* <https://www.volocars.com/blog/history-of-crime-and-punishment>

Ushbu qonunda jazolarni belgilashda yosh, mansab va jins hisobga olingan. Ya'ni agar boy odam o'g'irlik osdir etsa kambag'al sodir etgan o'g'rilikka nisbatan ko'proq jarima belgilangan.

O'zbekiston tajribasidan esa, "Temur tuzuklari"ni ko'rish mumkin, bu qonunda ham jazolar jinoyat turiga qarab belgilangan. Tarixda mutanosiblik va insonparvarlik prinsipini nazarda tutmagan holda jazo choralari belgilanishining asosiy sababi qadimda hokimiyat tepasida turganlar jazo choralari qanchalik og'ir bo'lsa, oddiy fuqarolar shunchalik jinoyat sodir etishdan qo'rqib jinoyat sodir etmaydilar deyishgan, xususan, miloddan avvalgi ³390-338-yillarda yashagan xitoy faylasufi Shan Yanning fikricha "*Qattiq jazo choralarini qo'llab, jinoyat uchun o'zaro javobgarlik tizimi joriy etilganda odamlar o'zlarida qonun kuchini sinab ko'rishga jur'at qilolmaydilar*". Bundan tashqari yunon faylasufi Aristotel ham jinoyatlarni oldini olishda qattiq jazo choralarini qo'llashni yoqlagan, uning fikricha qattiq jazo choralari jinoyatchilarni qayta o'sha jinoyatlarning sodir etishdan va boshqaa fuqarolarni jinoyatlar sodir etishdan saqlaydi deb ishongan. Shuning uchun qadimda jinoyatlar insonparvarlik prinsipiiga mutlaqo zid bo'lgan.

Ammo shuni ham ta'kidlash joizki, mana shu qattiq jazo choralari xalqda kuchli norozilikni keltirib chiqargan va hokimiyatdan qo'rqish, ertangi kuniga umidsizlik hissini uyg'otgan, keng omma noroziliklari va ommaviy tartibsizliklarga yo'l ochib bergan.

Qadimgi odamlar hattoki jazolash "Xudoning irodasi" deb ishonishgan va jazolovchilarni esa "Xudoning elchilari" deb ishonishgan va jinoyatchilar uchun qanday jazolar qo'llanilishi muayyan qoidalarga asosan belgilanmagan, ularning fikriga ko'ra jinoyatchi agar aybsiz bo'lsa uni Xudoning o'zi mo'jiza ko'rsatib qutqaradi deb ishonishgan. Masalan jinoyatchini sovuq suvga tashlab yuborishganda, agar jinoyatchi cho'kib o'lmasa demak u aybsiz deb ishonishgan va "Xudoning mo'jizasi" deb bilishgan. Shuningdek jazo choralari xalqqa ma'lum tarzda ommaga ma'lum holatda amalga oshirilgan, toki xalq bundan o'rnak olishi uchun, bunga misol sifatida Qadimgi Rim davrida ochiq osmon ostida xochga tortilganlarni keltirish mumkin. Jinoyat va jazo tizimida dinni aralashtirmaslik g'oyasi St. Thomas Aquinas tomonidan "Summa Theologica"da yozilgan va uning fikricha Xudo tomonidan tabiiy qonuniyatlar yaratilgan bo'lib insonlar tabiatan yaxshi ishlar qilish uchun yaratilgan, jinoyatchi esa jamiyat oldida ham, Xudo oldida ham birdek javobgar deb topilgan. Jinoyatlar odamlarni Xudoga nisbatan ishonchsizlik hissini keltirib chiqargan deb ta'kidlaydi u. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jinoyatchi jazoga tortilayotgan vaqtda meni Xudo asrab qolmadi deb, jabrlanuvchi esa jinoyatlardan aziyat chekkanligi sababli Xudodan uzoqlasha boshlagan va unga nisbatan g'azab shakllangan.

Yana bir yangi g'oya Italiya yozuvchisi Cessara Beccaria tomonidan ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra, jinoyatlarni jazolashdan ko'ra ularni oldini olishga kurashish kerak va yana uning ta'kidlashicha, hukm qiluvchi faqatgina jinoyatchining aybli yokida aybsizligini aniqlashi jazolarni esa muayyan belgilab qo'yigan qonunchilik asosida belgilashi lozim. Bu shuni anglatadiki, endilikda hukm qiluvchi o'zi istagan jazolarni jinoyatchiga qo'llay olmaydi va albatta jazo choralari jinoyatlarning xavflilik darajasiga munosib bo'lishi zarur.

³ Ziyouz.com kutubxonasi, (2013) SHAN YAN

<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/shan-yan>

Ushbu g'oyalar jinoyat va uni jazolash tizimida tub burilish yasab, uni mutlaqo o'zgartirib yuborishga sababchi bo'lgan va hozirgi global dunyoga mos keladigan zamonaviy qonunchilikni yaratish uchun asos bo'lgan.

O'zbekistonda jinoyatlar va unga qarshi kurash.

⁴O'zbekistonda qayd etilgan jinoyatlar statistikasiga to'xtaladigan bo'lsak, 2021-yilda jinoyat ishlari bo'yicha tuman(shahar) sudlarida birinchi instantsiya tartibida jami 46 871 ta, 2022-yilda 58 691ta, 2023-yilda 56 636 ta, 2024-yil boshidan hozirga qadar 46 294 ta ish ko'rilgan. Bundan ko'rinish turibdiki, jinoyatlar 2021-2022-yillar oralig'ida anchagina o'sgan. 2023-2024-yillarga kelib esa yana barqaror tarzda tusha boshlagan.

Eng ko'p jinoyat turlari iqtisodiy sohada qayd etilgan bo'lib, bular firibgarlik, o'g'rilik va pora berish kabilarni o'z ichiga oladi va ushbu jinoyatlarning eng ko'p ulushi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu jinoyatlarni sodir etganlarning ko'pchiligi oilali, oddiy ishda ishlaydigan va hattoki ishsiz, ma'lumoti o'rta bo'lib muqaddam sudlangan.

Endi O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurash mexanizmlariga to'xtaladigan bo'lsak, bunga "Jinoyat Kodeksi"ni misol qilish mumkin bo'lib, ushbu qonun jinoyat huquqi sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni qonuniy jihatdan tartibga solib turadi va ushbu qonunning vazifalari Jinoyat kodeksining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiya va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Ana shu vazifalarni amalga oshirish uchun Kodeks javobgarlikning asoslari va prinsiplarini, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligini aniqlaydi, ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda qonuniylik, fuqarolarning qonun oldida tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarliligi prinsiplariga asoslanadi. Shu jumladan Jinoyat-protsessual kodeksi ham jinoyat huquqiga oid munosabatlarni tartibga solib quyidagi vazifalarni bajaradi:

- jinoyatlarni tez va to'la ochishdan;
- jinoyat sodir etgan har bir shaxsga adolatli jazo berilishi hamda aybi bo'lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etishdan;
- qonunning to'g'ri tatbiq etilishini ta'minlashdan iboratdir.

Jinoyat ishlarini yuritishning jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya etishga yordam qilmog'i lozim.

Bunga qo'shimcha ravishda "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlarining (keyingi o'rinlarda — davlat

⁴ Public.sud.uz <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>

idoralari va tashkilotlari) ustuvor vazifasi etib belgilanishiga alohida urgʻu berilgani ham jinoyatlarni oldini olish va unga qarshi kurashish qanchalik ustuvor vazifa etib belgilanganligining yaqqol isbotidir. Bundan tashqari huquqbuzarliklarni oldini olish va ularni kamaytirish maqsadida profilaktika ishlari olib borilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorligi taʼminlanib, sudning mustaqilligini taʼminlashda qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari Oʻzbekiston qator davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan jinoyatlarga qarshi turish boʻyicha hamkorlikni amalga oshirmoqda. Masalan, Rossiya, AQSH va Xitoy bilan kiberxavfsizlikni taʼminlash va terrorizmga qarshi kurashish boʻyicha hamkorlik olib, ushbu sohada tajriba almashinish borasida treninglar olib borishga kelishuvlarga erishgan. Xalqaro tashkilotlardan Yevropa Ittifoqi, BMT, Interpol, ShHT, YXHT bilan hamkorlik olib borib, qoʻshma dasturlar ishlab chiqmoqda.

Mamlakatimizdagi jazo tizimi haqida toʻxtaladigan boʻlsak, Jinoyat Kodeksining 43-moddasiga muvofiq jazo tizimi quyidagilardan iborat:

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qoʻllanilishi mumkin:

- a) jarima;
- b) muayyan huquqdan mahrum qilish;
- b¹) majburiy jamoat ishlari;
- v) axloq tuzatish ishlari;
- g) xizmat boʻyicha cheklash;
- d¹) ozodlikni cheklash;
- e) intizomiy qismga joʻnatish;
- j) ozodlikdan mahrum qilish;
- z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

Mahkumlarga asosiy jazolardan tashqari harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tarzidagi qoʻshimcha jazo ham qoʻllanilishi mumkin.


Xizmat boʻyicha cheklash yoki intizomiy qismga joʻnatish tariqasidagi jazolar faqat harbiy xizmatchilarga nisbatan qoʻllaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish faqat asosiy jazo sifatidagina emas, balki qoʻshimcha jazo tariqasida ham qoʻllanilishi mumkin.

III. Natijalar

Olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, hozirda Oʻzbekiston turli qonun hujjatlarini qabul qilish va ularni amaliyotda qoʻllash orqali jinoyatlar sodir etilishi va takrorlanishini oldini olishga koʻproq eʼtibor bermoqda va bu borada ishlab chiqilgan qonun va huquq mexanizmlari zamonaviy xalqaro tajribalarga mos ravishda ishlab chiqilmoqda. Hatto hozirda ham qonunchilik hujjatlariga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilishi kutilmoqda. Oʻzbekistondagi jinoyat statistikalarining natijalari shundan iboratki 2021-yilda jinoyatlarning sodir etilish koʻrsatkichi past boʻlgan boʻlsada, 2022-yilda ushbu koʻrsatkich sezilarli darajada oshgan, keyingi yillarda normal holatda tushishi kuzatilgan.

Bunda shuni aytish joizki, iqtisodiy jinoyatlar eng ko‘p sodir etilgan jinoyat turidir



⁵Jinoyatlarning eng ko‘p qismi iqtisodiy sohada— 43,8%, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar— 24%, davlat organlari, boshqaruv va jamoat birlashmalari faoliyatiga qarshi jinoyatlar — 16,4%, shaxsga qarshi jinoyatlar — 15,2%, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar 0,4% va eng kam ekologiya sohasida sodir etilgan jinoyatlar 0,2% ni tashkil etdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, ushbu jinoyatlarni sodir etganlarning ko‘pchiligi oilali, oddiy ishda ishlaydigan va hattoki ishsiz, ma’lumoti o‘rta bo‘lib, muqaddam sudlanganlardir. Voyaga yetmaganlar va ayollar tomonidan ham jinoyat sodir etishlar mavjud.

IV. Muhokama

Endilikda, O‘zbekistonda nega jinoyatlarning davomiy tarzda sodir etilib kelinayotganini muhokamasiga o‘tsak, natijalar shuni ko‘rsatyaptiki, iqtisodiy jinoyatlar eng ko‘p sodir etilgan jinoyatlardandir. Ushbu jinoyatlarning sababi sifatida turli omillarni ko‘rish mumkin. Masalan, jinoyatlarga qarshi kurash mexanizmining yaxshi ishlamasligi, ishsizlik, moliyaviy qiyinchiliklar, aholida huquqiy savodxonlikning yetishmovchiligi, bolalarning noto‘g‘ri tarbiyalanishi, e’tiborsizlik, bilimsizlik va hokazo. O‘zbekistonda mavjud jinoyatchilikka qarshi kurash va uni oldini olish mexanizmlari mavjudligining o‘zi jinoyatlarni kamaytirish uchun yetarli emas. Jinoyatlar yuzaga kelish sababi haqida mashhur rus yozuvchisi Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” kitobida muhokama boradi. Bunda ikki omil o‘rtaga tashlanadi: muhit yoki ruh. Ya’ni odamlarning jinoyat sodir etishida ko‘proq tashqi omillar: odamlarning yashash tarzi, moliyaviy qiyinchiliklar, yashash sharoitlari, ishsizlik, atrofdagi muhitning buzuqligi sabab bo‘ladimi yoki jinoyat sodir etishda subyektiv omillar: ruhiyatda azaldan g‘araz niyatlar mavjudligi, vijdonning nopokligi, tabiatan jinoyat sodir etishga moyillik sabab bo‘ladimi deya bahs borgan.

⁵Nurullo Sh,(2024) Gazeta.uz: So‘nggi 5 yil Ichida O‘zbekistonda jinoyatchilik 2,3 barobar oshdi.
<https://uz24.uz/uz/articles/jinoyat-2-19>

Hatto ba'zi odamlarning fikriga qaraganda, diniy ta'limotning yetishmovchiligi ham jinoyatlarga sabab bo'ladi, ya'ni insonlar qanchalik Xudodan uzoqlashib, u va uning jazolari haqida unutib qo'ysalar oxir-oqibat jinoyatlar sodir etishdan ham qo'rqmay qo'yadilar. Hozirda kiberjinoyatlar ham qator etilib bu O'zbekistonda ham allaqachon ommalashdi.⁶ AKT kompaniyasi asoschisi va bosh ijrochi direktori janob Arto Tenxunenning aytishicha, kiberxavfsizlik uchun eng katta xavf inson xatolari bo'lib qolmoqda, bu esa qayd etilgan jinoyatlarning 60 foizini tashkil qiladi. Uning so'zlariga ko'ra, kiberxavfsizlik giyohvandlik biznesidan ko'ra kattaroq biznesdir, *"bu ancha oson, ular biz ijtimoiy tarmoqlarda baham ko'rayotgan ma'lumotlardan xabardor bo'la olishadi"*. Jinoyatchilar uchun internetdan ma'lumot to'plash juda oson. Uning bu fikrini izohlaydigan bo'lsak, hozirda kiberjinoyatlar ommalashayotganining asosiy sababchisi insonlarning o'zi bo'lib, ularning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi bu uchun zamin yaratmoqda.

Ya'ni bir necha yillar oldin kiberjinoyatchilar o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun muayyan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga buzib kirish kerak edi, ammo hozirda odamlarning shaxsiy ma'lumotlari internetda olish uchun oson va ushbu ma'lumotlar "shaxsiy ma'lumotlar"dan ko'ra ko'proq butun "ommaviy ma'lumotlar" bo'lib qolmoqda. Ushbu fikrlarni bayon etish orqali Arto Tenxunen odamlarni ogoh bo'lishga, ijtimoiy tarmoqlarda joylayotgan ma'lumotlariga e'tibor berishga chaqirmoqda. Ushbu fikrni yoqlagan holda, huquqiy savodsizlik va odamlarning e'tiborsizligi kiberjinoyatlar ildiz otishining asosiy sababchisi deya olamiz. Xususan, ogohlik – davr talabidir. Ushbu jinoyat O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda endi yuzaga kelayotganiga qaramasdan ularga qarshi kurash tizimini samarali joriy etish maqsadga muvofiqdir, agarda aksincha e'tiborsiz qoldirilsa uning butun mamlakatda katta xavf bo'lishi ajab emas. Xususan,⁷ Sok Visal shunday ta'kidlaydi: *"Qonunlarni yaratishdan oldin voqealar sodir bo'lishini kuta olmaymiz. Jinoyat qonunlari istiqbolli bo'lishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan ko'ra olishi va tezkor huquqiy javoblarni ta'minlashi kerak"*. Ushbu fikrga mutlaqo qo'shilgan holda shuni aytamizki, ijtimoiy normalar doimo ijtimoiy munosabatlardan oldinda yurishi kerak. Ya'ni, biz qonunlar ishlab chiqish, yokida muayyan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda faqatgina jamiyatda sodir bo'layotgan munosabatlarnigina inobatga olmasdan, jinoyatlar tarixini o'ganishimiz va kelajakdan qanday huquqbuzarliklar sodir etilishi mumkinligini prognoz qilgan holda, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni yaratishni o'zimizning burchimiz sifatida bilishimiz zarur.

Bundan tashqari hozirda global muammoga aylanib ulgurgan korrupsiya jinoyatlarini oladigan bo'lsak, ushbu jinoyatning davlat mansabdor shaxslarining o'zi tomonidan ham sodir etilayotgani faqatgina achinarlidir⁸ "Poraxo'rlik har qanday sivilizatsiyalashgan jamiyat

⁶ Rapheal. (June 11, 2019 Tuesday). 60% cyber crimes caused by human mistakes –Expert. The Sun (Nigeria). <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a5W9R-TTG1-JDJN-62TM-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.

⁷ (August 27, 2024 Tuesday). Ministry drafting criminal law. Khmer Times. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6CV1-MTM1-JCH9-G0NS-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>.

⁸ Shoul M. Froomkin, Money Laundering, Corruption and the Proceeds of Crime - An International Reality Check [https://www.westlaw.com/Document/I1ed2c7bcb97311dc81188c7818c06073/View/FullText.html?transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&VR=3.0&RS=cblt1.0](https://www.westlaw.com/Document/I1ed2c7bcb97311dc81188c7818c06073/View/FullText.html?transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&VR=3.0&RS=cblt1.0)

poydevoriga tahdid soladigan yovuz amaliyotdir. Xususan, militsiya va prokurorlarning poraxo‘rligi odil sudlovni obro‘sizlantirishga olib keladi.” Ishonchli vakil, xizmatchi, agent yoki boshqa ishonchli shaxs tomonidan shunday qonunbuzarliklar sodir etilib turgan bir paytda, oddiy aholidan qonunlarga rioya etishni talab qilish shunchaki ahmoqlikdir. Ushbu illatning jamiyat iqtisodiyotiga qanchalik zarar keltirayotganini taxmin qilish ham mumkin emas. Bu jinoyatni bartaraf etishni davlat organlarining o‘zidan boshlash mantiqan to‘g‘ri bo‘lar edi. Chunki fuqarolar ushbu jinoyatni huquqiy savodi yetishmasligidan sodir etsa davlat organlari yokida uning mansabdor shaxslari ushbu harakatning jinoyat ekanligini bila turib ushbu niyatini amalga oshirishdan qaytmaydi. Bizga tishsiz qo‘riqchi itlar emas, tishli qo‘riqchilar kerak: biz jinoyatlarga qarshi kurashda huquq mexanizmlarini yaratar ekanmiz, ularning samarali ishlashini ham o‘z bo‘ynimizga olmog‘imiz lozim. Zero, qomunlar samarasiz bo‘lar ekan bizga qonunlar nega kerak?

Mavjud tadqiqotlarimizning hayratlanarli jihati shundaki, jinoyatlar ko‘p hollarda muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan sodir etilganidir. Bu ularning qilgan qilmishidan tegishli xulosa chiqarmaganidanmi yoki jazolash tizimining yaxshi ishlamayotganidanmi degan savolni o‘z-o‘zidan tug‘diradi. Fikrimizcha jazolash tizimi yaxshi ishlasagina, biz jinoyatlar takror sodir etilishining oldini ola olamiz. Bunda kuchli jazo choralari qo‘llash nazarda tutilmayapti, aksincha jazo choralari jazolashdan ko‘ra tarbiyalashni nazarda tutishi kerak. Mashhur bokschi Mayk Tayson boks qonun-qoidalariga amal qilmaganligi tufayli 3 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum qilingan edi, shu jazoni o‘tagandan so‘ng u aynan manashu uch yil uning hayotining eng yaxshi kunlari bo‘lganligini intervyularining birida aytib o‘tgan edi. Bundan aytish mumkinki, biz jazo choralari yoki ozodlikdan mahrum qilish joylarini inson hayotini barbod qilish emas, yangicha hayot boshlashi uchun imkoniyat sifatida tashkil etishimiz kerakdir. To‘g‘ri inson birinchi marta muhit tufayli jinoyat sodir etishi mumkindir, ammo keyinchalik takror va takror jinoyatlar sodir etish uning ruhiyati buzilganidan dalolatdir. Bunday holatda, bir xil jazo chorasini unga qayta va qayta qo‘llash yoki jazo chorasining muddatini uzaytirish ahvolni o‘zgartira olarmidi? Fikrimizcha, jinoyatchilar jazoni ijro etish kaloniyalarida jazoning muayyan qismini o‘tagach, jamiyat va o‘zining ruhiy holati uchun foydali bo‘lgan to‘garak va mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishi zarur, aynan mana shunday holatdagina ularni ruhiy jihatdan tarbiyalashga erishish mumkin. Vaholanki, mahbuslarni faqatgina bitta joyda saqlab turish aksincha ularning ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri bazi koloniyalarda bu qisman amalga oshirilmoqda, ammo bu barcha koloniyalarda ham amal qilmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda eng ko‘p iqtisodiy jinoyatlar ommalashgan bo‘lib, bular ko‘pincha moliyaviy jihatdan ahvoli yaxshi bo‘lmagan shaxslar tomonidan amalga oshirilmoqda. Buning sabablari sifatida moliyaviy qiyinchiliklar, ishsizlik, huquqiy savodxonlikning yetishmasligi va hokazolarni ko‘rish mumkin. Jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi turish mexanizmi mavjudligining o‘zi yechim bo‘la olmaydi.

Mavjud masala bo‘yicha takliflar kiritishda jinoyatlarga qarshi kurashishdan ham ko‘ra ko‘proq, ularning oldini olishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

- bolalarni jinoyatchilikka kurash ruhida tarbiyalash, bu turli xil multfilm va o‘yinlar orqali amalga oshirilishi kerak va ota-onalar buni o‘z navbatida nazorat qilib borishi zarur;

- aholini huquqiy savodsizligiga barham berish va jinoyatlardan (jumladan, kiberjinoyatlar) ogohlantirish targ'ibot ishlarini olib borish;
- jazo ijro etish kaloniyalarida mahkumlarni tarbiyalash tizimini joriy etish va uning yaxshi ishlashi ustidan nazorat olib borish (bu ularni jamiyat turli to'garak va loyihalarni tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi);
- jinoyatchilarni ruhiy holatiga alohida e'tibor qaratish va bu borada mutaxassislarni jalb etish;
- jazodan ozod etilganlarni jamiyatda o'z o'rnini topib ketishga ko'maklashish va ularni oilaviy sharoitini yaxshilay oladigan real ish bilan ta'minlash (buning uchun ularni kalonidalik paytida bu bo'yicha tayyorlab, ta'lim berish zarur);
- aholining ishsiz qatlamini ish bilan ta'minlash va ularni tadbirkorlik, onlayn biznes kabi qo'shimcha moliyaviy manbalar bilan ta'minlaydigansohalar bilan shug'ullanishini qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/mact/-111453>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi // <https://lex.uz/mact/-111460>
3. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori // <https://lex.uz/docs/-3141186>
4. David McCulloch, (2023) *A History of Crime: Investigations, Trials and Punishments* // <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=9b39aef7-9f6a-4689-9f53-d7d1a4977c16>
5. Volo museum blog, (2020) *History of Crime and Punishment* // <https://www.volocars.com/blog/history-of-crime-and-punishment>
6. Ziyouz.com kutubxonasi, (2013) SHAN YAN // <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/shan-yan>
7. Nurulloh Sh, (2024) *Gazeta.uz: So'nggi 5 yil Ichida O'zbekistonda jinoyatchilik 2,3 barobar oshdi* // <https://uz24.uz/uz/articles/jinoyat-2-19>
8. Public.sud.com // <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
9. Rapheal. (June 11, 2019 Tuesday). 60% cyber crimes caused by human mistakes –Expert. The Sun (Nigeria). <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a5W9R-TTG1-JDJN-62TM-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>
10. (August 27, 2024 Tuesday). Ministry drafting criminal law. Khmer Times. <https://advance.lexis.com/api/document?collection=news&id=urn%3acontentItem%3a6CV1-MTM1-JCH9-G0NS-00000-00&context=1519360&identityprofileid=CJQVWW63400>
11. Shoul M. Froomkin, Money Laundering, Corruption and the Proceeds of Crime - An International Reality Check [https://www.westlaw.com/Document/I1ed2c7bcb97311dc81188c7818c06073/View/FullText.html?transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&VR=3.0&RS=cb1t1.0](https://www.westlaw.com/Document/I1ed2c7bcb97311dc81188c7818c06073/View/FullText.html?transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&VR=3.0&RS=cb1t1.0)